O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi 17-sonli maktabning Geografiya fani o'qituvchisi Shirqulova Zamiraning

O'quvchilarga ta'lim jarayonida ma'naviy va ekalogik tarbiyaning ro'li va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom

Abdug'anievich

Karimovning

7-avgust 2015-yil prezidentimiz yangi tahriridagi kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

''Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oily saodatdir''

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi 17-sonli maktabning Geografiya fani o'qituvchisi Shirqulova Zamiraning

Mavzu:O'quvchilarga ta'lim jarayonida ma'naviy va ekalogik tarbiyaning ro'li va axamiyati


- Vatan geografiyasi va iqtisodini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega deb yurtboshimiz bejiz aytmaganlar
- Geografiya fanini va boshqa fanlarni o'qitishda biz aziz o'qituvchilar o'quvchilarga ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish shu bilan birga ekalogik tarbiyani ham tushintirib shakllantirib borishimiz kerak.
- «Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish,qalban ulg'ayishga chorlaydigan,odamning ichki dunyosi,irodasini baquvvat,imon -e'tiqodini butun qiladigan,vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch,uning barcha qarashlarining mezonidir»
- Ekalogik muammolar deyilganda

- Orol muammosi
- Cho'llashish
- Azon qatlamining yemirilishi
- Chuchik suv muammosi

shu kabi bir qancha global muammolar mavjud,shu jumladan orol muammosi haqida aytib o'tsam.

Orol birgina bizning emas balki butun dunyoda ham global muammo ekanligini 2014-yil 28-29-oktabr kunlari Urganch shahrida BMT shafeligida bo'lib o'tgan

- Bugungi kunda Orolbo'yida yuzaga kelgan omonat ekalogik muvozanatni mustahkamlash,cho'llanishga qarshi kurashish,suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish,ulardan tejab-tergab,oqilona foydalanish;
- Orolbo'yi aholisining genofondi va salomatligini saqlash va ta'minlash uchun sharoit yaratish,ijtimoiy infratuzilmani,tibbiyot va ta'lim muassasalari tarmog'ini keng rivojlantirish;



- Bu erda yashayotgan aholida tushkinlik kayfiyatining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish.
- Hayvonot va o'simlik olami bioxilmaxilligini, kichik suv havzalari yaratish orqali saqlash va qayta tiklash, mintaqaning noyob flora va faunasini asrab-avaylash dardkor.

O'quvchilar bilan ishlash jarayonida (psixolog bilan) o'quvchilardan so'rovnomalar otkazish;

- O'quvchilarga xalq og'zaki ijodidan foydalanish uchun kichik sahna ko'rinishlarini tayyorlash
- Ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kunning eng qiziqarli va muammoli ko'rsatuvini aytish

Orol dengizi mintaqasidagi ekalogik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya haqida va bu konferensiyada qilingan ishlar

- Fanga oid bo'lgan eng muammoli chuchuk suv muammosi, tabiatni asrash, o'zimiz yashab turgan hududning yanada chiroyli va betakror bo'lishini suhandonlik qobiliyati bilan tushintirish
- Sport bilan shug'ullanadigan va qiziqadigan o'quvchilarga sport sharhlovchisi vazifasini topshirish.
- Unda o'quvchi sportchilar haqida va ular qaysi davlatlarda yashashi poytaxtlari, pul birliklari, davlatlar qaerlarda joylashganligi haqida ma'lumot beradilar.
- O'quvchilar dunyoqarashini shakillantirishda.

Osiyo-Afrika=Qit'a

Parij-Toshkent=Poytaxt

To'g'on-sunami=tabiiy ofat

Aziz kasbdoshlar! Biz o'z kasbimizni ma'suliyatli lekin sharafligini dildan his etgan holda bilimdonligimiz, ijodkorligimiz, fidoiyligimiz

bilan mustaqilligimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

- E'tiboringiz uchun rahmat

• **Xovos tumanidagi 17-maktab**

Geografiya

• **Fani o‘qtuvchisi SHirqulova Zamira**

• **Qo‘chqorboevnaning**

Bir soatlik ochiq dars ishlanmasi

Dars shiori

Geografiya bugungi kun Tarixidir,
Tarix esa o'tgan kunlar Geografiyasidir.

Mavzu:Tabiiy geografik o'lkalari.Aholisi

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi.

Mavzu	Tabiiy geografik o'lkalari.Aholisi
Maqsad vazifalari	Maqsad;O'quvchilarda yangi atama va tushunchlarni shakllantirish tabiiy geografik o'lkalari,aholi o'rni xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish;o'quvchilarda geografik o'rin ko'nikmasini shakllantirishda davom etish;Mikroneziya, polineziya, meloniziyaga kiruvchi orollarni xaritadan

	<p>topo olish ko'nikmalarini mashq qilish;okeaniyani tadqiq etgan sayyohlar haqida ma'lumot berish.</p>
<p>O'quv jarayonining mazmuni</p>	<p>Vazifalar;</p> <p>O'quvchilarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, geografik atlas va xaritalar bilan ishlashga qiziqish uyg'otish.</p> <p>O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ult) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.</p>
<p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Uslub; "Aqliy hujum" juftlikda ishlash ("B.B.B"), "Guruhlar bilan ishlash.</p> <p>Shakl; Savol-javob, jamo va yakka tartibda ishlash, amaliy mashg'ulot.</p> <p>Vosita; Dunyo tabiiy xaritasi, 6-sinf o'quv atlasini, yozuvsiz xaritasi, 6-sinf darsligi 'Kompyuter Janubiy Amerika xaritasi.</p> <p>Usul; Tayyor yozma materiallar, Akvarun, mavzusiga oid xaritalar asosida.</p> <p>Nazorat; Savol-javob o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash; Rag'batlantirish, besh ball tizimi</p>

	asosida baholash.
Kutilayotgan natijalar	O'qituvchi:Mavzu belgilangan
Kelgusi rejalar(taxli 1 o'zgarishlar)	

Mashg'ulotning borishi

Dars rejasi:

- **1. O'qituvchining kirish so'zi (1daqiq).**
- **Darsning tashkil etilishi:**
 - a) salomlashish, davomatni aniqlash;
 - b) o'quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;
- **2. Guruhlarga bo'linish (2 daqiqa).**
- O'quvchilar tanlagan emblemalari orqali 3ta guruhga
- bo'linib, joylariga o'tirishadi (*emblemalar*)
- *o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi).*

Yangi mavzu bayoni

Janubiy Amerika hududining relyefi tafovutlariga asoslanib, unda ikkita yirik tabiiy geografik o'lka ajratilgan - Tog'li G'arb va Tekislikli Sharq . O'z navbatida, bu o'lkalar tabiiy xususiyatlariga qarab bir necha kichikroq tabiat komplekslariga bo'linadi. Jumladan, tog'li hududida Shimoliy ,Markaziy va Janubiy And tekislikli hududida esa Orinoko,Amazoniya ,Gaviana va Braziliya yassi tog'lari, Patagoniya kabi kichik tabiiy geografik o'lkalarni ajratish mumkin.

Amazoniya materikning eng katta botqoqlashgan pasttekislagidir. U Gaviana va Braziliya yassi tog'liklari oralig'ida joylashgan. Bu pasttekislik platformaning botiq qismi dengiz, ko'l va daryo yotiziqlari bilan to'liishi nastijasida paydo bplgan.

Braziliya yassi tog'ligi Amazonka va La-Plata pasttekisliklari hamda Atlantika okeani oralig'da joylashgan. U , asosan , eng qadimgi Kristal va metamorfik tog' jinslaridan tuzilgan. Kristal jionslar orasida temir, olmos , oltin, uran rudalari, marganes , rangdor metal rudalarining konlari bor. Yassi tog'likning yuzasi chuqur daryo vodiylari bilan parchalangan , ular past-baland qirralarni eslatadi .

Yassi tog;likning katta qismi subekvatorial va tropik, janubiy qismi esa subtropik mintaqalarda joylashgan.

Janubiy Amerikada 397mln . aholi yashaydi,ularning tarkibi juda murakkab. Materikka kishilar bundan 20 ming yillar ilgari Osiyodan kelgan. XVI asrda dastlab ispanlar bilan portugallar, keyinchalik Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlaridan kelib o'rnashgan.

Uyga vazifa:

- 41- darsni o'qib kelish. Atlasdan 94-betdagi atlasdan foydalanish
 - kiruvchi orollarni yozuvsiz xaritaga tushirishni tugallash.
- Janubiy amerika haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plash

Geografiya 5-sinf

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mavzu:	Ob-havo va iqlim
Maqsad va vazifalar	O'quvchilarda havo namligi, havodagi suv bug'i, mutloq namlik haqidagi bilim va tushunchalarni shakllantirishda davom etish; boshlang'ich sinfda Tabiatshunoslik fanidan ob-havo, ob-havodan darak beruvchi belgilar haqida olgan bilimlarini eslatish; ob-havo elementlari, uning ahamiyati, iqlim, iqlimning geografik kenglikka bog'liqligi haqida bilim berish.
O'quv materiali mazmuni	O'quvchilarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, geografik atlas, xaritalar va rasmlar bilan ishlashga qiziqish o'yg'otish. O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka tartibda, kichik guruh, jamoa bo'lib ishlash. Metod: "Aqliy hujum", "Amaliy mashg'ulot" "Kichik guruhlar bilan ishlash", savol- javob, test. Vosita: Darslik, mavzu bo'yicha slaydlar, globus, 5-sinf o'quv atlas va yozuvsiz xaritalar, tarqatma materiallar, Dunyoning tabiiy (yoki iqlim) xaritasi, O'zbekiston Respublikasi iqlim xaritasi. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat testlari.

	Baholash: rag'batlantirish, 5 ballik tizim asosida.
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o'yg'onadi. Amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajaradilar, barcha o'quvchilar yakka tartibda baholanadi. boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga o'rgatiladi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar. Guruhlar bilan ishlashni o'rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko'rsata olish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar</p>
Kelgusi rejarlar	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologilarni o'zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O'z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqyalar bilan bog'laydi va solishtiradi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil isshashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qo'shimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>

Mashg'ulotning borishi

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi (1 daqiqa).
2. Guruhlarga bo'linish (2 daqiqa).

3.“Amaliy topshiriq” orqali uyga berilgan mavzu yuzasidan bilimlarni tekshirish (8daqiqa).

4. Yangi mavzu bayoni. (10 daqiqa).
5. Ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilarga rasm chizish (7 daqiqa).
6. Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa).
7. “Qisqa muddatli test sinovi” (3 daqiqa).
8. Mavzuni mustahkamlash (2 daqiqa).
9. O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash (2 daqiqa).
10. Uyga vazifa.

1. O'qituvchining kirish so'zi (1daqiqa).

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish, davomatni aniqlash;
- b) o'quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;

2. Guruhlarga bo'linish (2 daqiqa).

O'quvchilar iqlim elementlariga ko'ra 5 ta guruhga bo'linib, joylariga o'tirishadi (emblemalar ilova qilinadi).

I-guruh. **Quyosh**

II-guruh. **Bulut**

III-guruh. **Shamol**

IV-guruh. **Yomg'ir**

V-guruh. **Qor**

O'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi:

Oltin qoidalar:

1. Faollik.

2. Vaqtga rioya qilish.
3. Aytilgan fikrni takrorlamaslik.
4. O`zaro hurmat.
5. To`g`ri javob uchun rag`bat.
6. O`ng qo`l qoidasi.
7. "Bir yoqadan bosh chiqarish".
8. Intizom.

Ishlab chiqilgan oltin qoidalar doska chetiga osib qo`yiladi.

3. "Amaliy topshiriq" orqali uyga berilgan mavzu yuzasidan bilimlarni tekshirish (8daqiq).

Guruhlar o`qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo`yilgan topshiriqlarni tanlab oladilar. (topshiriqlar ilova qilinadi).

1-topshiriq

Berilgan kuzatuv natijalariga asoslanib havo harorati (15 kunlik) grafigini chizing.

Kunlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
t ⁰	15	17	17	18	18	20	20	20	19	19	21	21	21	18	18

2-topshiriq

Toshkent shahrida mart oyi davomida shimoldan 2 marta, janubdan 5 marta, sharqdan 5 marta, g`arbdan 5 marta, shimoli – sharqdan 4 marta, janubi – sharqdan 2 marta, shimoli – g`arbdan 4 marta va janubi – g`arbdan 2 marta shamollar esgani kuzatildi. Ushbu hodisalarni "shamol guli" tarzida chizmada ifodalang.

3-topshiriq

Agar yog`in miqdori 100 mm, namlik koefisenti 0,5 ni tashkil etsa, bug`lanuvchanlikni aniqlang.

Yechish: $100 \cdot 0,5 = 50 \text{ mm}$

4-topshiriq

Yillik yog`in miqdori 200 mm, bug`lanuvchanlik 1000 mm bo`lsa, namlik koefisenti aniqlang.

Yechish: $200 : 1000 = 0,2 \%$ ga teng

5-topshiriq

Toshkent shahrida sentyabr oyi davomida 9 kun bulutli, 2 kun yomgirli va 18 kun Quyoshli issiq kun kuzatildi. Ushbu hodisalarni aylana diogramma tarzida ifodalang.

O`qituvchi tomonidan guruhlarining to`g`ri javobi uchun rag`bat (globus maketchasi) beriladi. (rag`bat globus chasi o`qituvchi tomonidan tayyorlab qo`yiladi).

4. Yangi mavzu bayoni. (Guruhlarning ijodiy yondoshuvi) (10 daqiqa).

Guruhlarga ijodiy yondoshish uchun yangi mavzu yuzasidan topshiriqlar beriladi.

O`qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo`yilgan topshiriqlar guruhlar tomonidan tanlab olinadi.

(topshiriqlar ilova qilinadi).

Ob-havo va iqlim

1. Ob-havo nima? Ob-havoning asosiy elementlari haqida gapiring.
2. Ob-havo elementlari va hodisalarining o`zaro bog`liqligi haqida gapiring.
3. Ob-havoning inson hayoti va mehnat faoliyatidagi ahamiyati haqida gapiring.
4. Ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilar haqida gapiring.
5. Iqlimning joyning geografik kengligiga bog`liqligi haqida gapiring.

5. Ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilarga rasm chizish

(7 daqiqa).

Guruhlarga ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilarga kunlik kuzatuv natijalri va ko'rsatilgan filmdan foydalangan holda rasm chizish topshirig'i beriladi.

6. Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa).

Ijodiy yondoshish uchun yangi mavzu yuzasidan tayyorlangan ma'lumotlar va ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilarga chizilgan rasmlar asosida guruhlar o'rtasida bajarilgan topshiriqlar almashinib ko'rib chiqilib guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.

1. Ob-havo deb troposferaning biror joydagi ayni paytdagi yoki ma'lum bir vaqtdagi (sutka, hafta, oy, fasldagi) holtiga aytiladi. Ob-havoning asosiy elementlari – harorat, namlikva havo bosimidir. Troposferada ob-havo elementlariga bog'liq ravishda shamol va bulutlar hosil bo'ladi, yog'inlar yog'adi.

2. Ob-havoning barcha elementlari va hodisalari o'zaro bog'langan bo'lib, biror elementning o'zgarishi boshqa elementlarning va butun ob-havoning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, bahorda erta bilan Quyosh chiqishi oldidan havo salqin, shamilsiz bo'ladi. Quyosh ko'tarilishi bilan Yer yuzasidagi havo isib yuqoriga ko'tariladi, big'lanishkuchayadi. Iliq havo yuqoriga ko'tarilib sovuydi. To'p- to'p va yomg'irli to'p-to'p bulutlar hosil bo'ladi. Ba'zan yomg'ir ham yog'ib o'tadi. Agar ob-havo bir necha kun o'zgarmay bir xilda tursa, u barqaror ob-havo deyiladi.

3. Ob-havoning inson hayoti va mehnat faoliyatida oldindan qanday bo'lishini bilish juda zarur. Bunda troposferaning holati haqidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi. Bunda bizga meteorologik stansiyalar va kosmik yo'ldoshlardan olingan ma'lumotlar tayanish lozim.

4. Ob-havoning holatidan darak beruvchi belgilarga masalan, yangi oy tug'ilishi arafasida ob-havo o'zgaradi; oy o'tov tiksa-havo aynishi mumkin; tunda va ertalab shudring tushsa – havo ochiq bo'ladi; osmonda patsimon bulutlarning suzib yurishi – uzoq davom etadigan yomg'ir belgisi; olcha daraxtlarining bargi to'kilmasdan qor yoqqan bo'lsa-da, haqiqiy qish boshlanmaydi; asalarilar uchib ketmay inida g'uvillashib tursa, havo aynib yomg'ir yog'ishi mumkin; agar terak barglari kuzda uchidan sarg'aya boshlasa, bahor erta keladi.

5. Ob-havoning biror joyga xos bo'lgan ko'p yillik rejimiga iqlim deyiladi. U avvalo joyning geografik kengligiga bog'liq. Masalan, ekvatorga yaqin yerlar Quyoshdan eng ko'p issiqlik oladi. Qutublarga yaqin o'lkalarni esa Quyosh eng kam isitadi. Buning natijasida esa Yer yuzida issiqlik mintaqalri vujudga keladi. Bular tropik, ikkita mo'tadil va ikkita sovuq mitaqalar. Qish sovuq, yoz issiq va yog'in kam yog'adigan iqlim kontenental iqlim deb ataladi.

7. O'quvchilarni o'tilgan yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalari qisqa muddatli test savollari orqali tekshirilib ko'riladi. (test savollari ilova qilinadi)

8. Mavzuni mustahkamlash. (2 daqiqa)

O'tilgan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning taqdimotiga yakun yasaydi va o'quvchilar tomonidan bergan javoblardagi kamchiliklarni to'ldirilib, guruhlarning to'g'ri javoibi uchun rag'bat bayroqchasi beriladi.

9.O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash (2 daqiqa)

Dars yakunida guruh o'quvchilari to'plagan globus (maketchalari) sanaladi, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi. Guruhlarga darsdagi ishtirokiga qarab "Eng zukko guruh", "Eng faol guruh", "Eng intizomli guruh" "Eng hamjihat guruh", "Eng chaqqon guruh" nominasiyalari o'z egalariga topshiriladi.

10. Uyga topshiriq:

Izoh: O'qituvchi oldindan oq (vatmin) qog'ozga uyga vazifa yozib osib qo'yadi.

Darslikdan 25- mavzuni o'qib, ob-havoning aynishidan darak beruvchi belgilarga rasm chizib kelish.

Dars davomida "Amaliy mashg'ulot", "Guruhlar bilan ishlash", usulidan keng foydalanganda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar og'zaki va amaliy

mashg'ulotlarni mustaqil bajaradilar, boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga, vaqt reglamentiga rioya etishga o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'tilgan yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash uchun test savollari

I-variant

1. Ob-havoning asosiy elementlarini belgilang.
 - A) harorat, yog'in, shamol
 - B) harorat, yomg'ir, qor
 - C) namlik, shamol, bosim
 - D) namlik, harorat, havo bosimi.
2. Iqlim nima?
 - A) troposferada ob-havoning doimiy o'zgarishi
 - B) ob-havoning ma'lum joyga xos bo'lgan fasliy o'garishi
 - C) ob-havoning muayyan joyga xos bo'lgan ko'p yillik rejimi
 - D) ob-havoning biror joyga xos bo'lgan mavsumiy va yillik rejimi.
3. Ob-havo deb nimaga aytiladi?
 - A) haroratning doimo o'zgarib turishi
 - B) troposferada ob-havoning tez-tez o'zgarib turishi
 - C) troposferaning muayyan bir vaqtdagi va shu joydagi (sutkalik, hafta, oy, fasldagi) holati
 - D) stratosferaning biror vaqtdagi va aynan shu joydagi sutka va haftalik holati.
4. Qish sovuq, yoz issiq va yog'in kam yog'adigan iqlim deb ataladi.
 - A) dengiz iqlimi
 - B) kontenental iqlim
 - C) issiq iqlim
 - D) tropik iqlim.
5. Havoda hosil bo'ladigan yog'inlar qaysilar?
 - A) shudring, qirov
 - B) yomg'ir, qor
 - C) do'l, yomg'ir
 - D) qirov, qor.

II-variant

1. Kechqurun qalin shudring tushsa havo qanday bo'ladi?
 - A) Havo yopiq shamol bo'ladi
 - B) Osmon bulutli va bo'g'iq bo'ladi
 - C) Chang to'zon va shamol bo'ladi
 - D) Havo ochiq-serquyosh bo'ladi.
2. Quyosh botish oldidan havo och sariq rangda bo'lsa, ertasi havo qanday bo'ladi?
 - A) Bulutli va qattiq shamol bo'ladi
 - B) Havo ochiq bo'ladi
 - C) Ertasi kuni yomg'ir yog'adi
 - D) Havo soviydi.
3. Ertalab va kechqurun kamalak ko'rinsa havo qanday bo'ladi?
 - A) Ertalab havo ochiq bo'ladi, kechqurun yomg'ir yog'adi.
 - B) Ertalab ko'rinsa yomg'ir yog'adi, kechqurun ko'rinsa havo ochiq bo'ladi
 - C) Ertalab havo sovo'q, kechqurun issiq bo'ladi.

D) Ertalab qirov tushadi,
kechqurun havo ochiq bo'ladi.

4. Yozda daraxtda sariq barglar paydo bo'lsa, quz qanday keladi?

- A) Kuz kech boshlanadi
- B) Kuz issiq va quruq keladi
- C) Kuz barvaqt boshlanadi
- D) Kuz iliq keladi.

5. Tunda va ertalab shudring tushsa havo qanday bo'ladi?

- A) havo ochiq bo'ladi
- B) havo bulut bo'ladi
- C) shamol bo'ladi
- D) sovuq bo'ladi.

Test kaliti I-variant

S	1	2	3	4	5
J	D	C	C	B	A

II-variant

S	1	2	3	4	5
J	D	C	B	C	A

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mavzu	Yevrosiyo materigining issiq iqlim mintaqalari.
Maqsad, vazifalar	<p>O'quvchilarda Yevrosiyo iqlimi haqidagi bilim va tushunchalarini shakllantirishda davom etish; ob-havo, iqlim va iqlim hosil qiluvchi omillarni yodga tushirish; mavzuga oid yangi atamalar bilan tanishtirish; Yevrosiyo iqlimiga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish, o'rganilgan materiklar iqlimi bilan qiyoslash.</p> <p>O'quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni o'qishga da'vat etish; o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda ma'suliyat sezish ko'nikmalarini tarkib toptirish.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>Vazifalar:</p> <p>O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.</p> <p>O'quvchilarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, geografik atlas va xaritalar bilan ishlashga qiziqish o'yg'otish.</p> <p>O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.</p>
O'quv jarayonini Amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: "Aqliy hujum", "Juftlikda ishlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Sinkveyn".</p> <p>Shakl: Savol-javob, jamoa va yakka tartibda ishlash, amaliy mashg'ulot.</p> <p>Vosita: Yarim sharlar tabiiy xaritasi, Yevrosiyaning tabiiy va iqlim xaritalari, atlas, yozuvsiz xarita, Yevrosiyo davlatlari bayroqlari maketlari, vatman, markerlar.</p> <p>Texnik vositalar: Televizor, multimedia, videomagnitafon, Dunyo tabiiy xaritasi, 6-</p>

	<p>sinf o'quv atlas, yozuvsiz xarita, 6-sinf darsligi, "Kompyuter Osiyo" ITP tomonidan yaratilgan o'quv filmi, tarqatma savollar.</p> <p>Usul: Tayyor yozma materiallar, Akvarium, mavzuga oid xaritalar asosida.</p> <p>Nazorat: Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 ball tizim asosida baholash.</p>
Kutilayotgan natijalar	<p>O'qituvchi:</p> <p>Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o'yg'onadi. Amaliy mashg'ulot davomida barcha o'quvchilar baholanadi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar og'zaki va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajaradilar, boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga o'rgatiladi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar. Guruhlar bilan ishlashni o'rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko'rsata olish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar</p>
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	<p>O'qituvchi:</p> <p>Yangi pedagogik texnologilarni o'zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O'z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqiyalar bilan bog'laydi va solishtiradi.</p> <p>O'quvchi:</p> <p>Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashi o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon eta oladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. Yangi mavzuga oid qo'shimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>

Mashg'ulotning borishi

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. (2 daqiqa)
2. Guruhlarga bo'linish. (2 daqiqa)
3. Biz bilgan bilimlar. (xotirani sinash-5daqiqa)
4. "Yevrosiyo relyefi" filmi tomosha qilish. (5 daqiqa.)
5. Juftlikda ishlash uchun topshiriq. (2 daqiqa)
6. Mavzuga ijodiy yondashish. (8 daqiqa)
7. Atlas va yozuvsiz xarita bilan ishlash. (7 daqiqa.)
8. "E'tiborni jamlash" o'yini. (5 daqiqa.)
9. Mavzuni mustahkamlash. (5 daqiqa.)
10. O'quvchilarni baholash. (2 daqiqa.)
11. Uyga vazifa. (2 daqiqa.)

Darsning tashkil etilishi: a) Salomlashish, davomatni aniqlash;

b) O'quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;

O'quvchilar iqlim elementlariga ko'ra 4 ta guruhga bo'linadilar.

I-guruh. Quyosh.

II-guruh. Bulut.

III-guruh. Shamol.

IV-guruh. Yomg'ir.

O'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi:

Oltin qoidalar.

1. Faollik.
2. Vaqtga rioya qilish.
3. Fikrni takrorlamaslik.
4. O'zaro hurmat.
5. To'g'ri javob uchun rag'bat.
6. O'ng qo'l qoidasi.
7. "Bir yoqadan bosh chiqarish".
8. Intizom.

O'qituvchi Yevrosiyo materigi haqida she'r o'qiydi.

Menman-Yevrosiyo, barcha biladi,

Qirg'og'im to'rttala okean yuvadi.

Egri-bugri qirg'oqda g'arbiy qismim,

Mo'jizakor asli bu mening jismim.

Kurrada eng katta materik o'zim,

Shimolni yaxshiroq ko'radi ko'zim.

Ovrupo, Osiyoni birlashtiraman,

Ummonu tog'larni sirlashtiraman.

Guruhlarga Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusi bo'yicha "Biz bilgan bilimlar" so'rovnomasi beriladi.

Ular qog'ozchalardagi javoblardan to'g'ri javobni topib, savollar yoniga joylashtirishlari kerak.

Savollar:

1. Shimoliy yarim sharning "sovuqlik qutbi" qayer va unda havo harorati necha gradusni ko'rsatgan? – ***Oymyakonda – 71°***
2. Dunyoda eng ko'p yog'in yog'adigan joy Yevrosiyodagi qaysi hudud? – ***Hindistondagi Cherrapunja rayoni – o'rtacha 12665 mm yog'in yog'adi.***
3. Sovuq iqlim mintaqasiga qaysi iqlim mintaqalari kiradi? – ***Arktika va subarktika iqlim mintaqalari.***

4. Mo`tdil iqlim mintaqasida qanday iqlim tiplari bor? – *dengiz, kontinental va musson iqlim tiplari.*

Har bir to`g`ri javob uchun guruh a`zolari Yevrosiyo davlatlari bayroqlari maketi bilan rag`batlantirib boriladi.

Videoikkilik orqali “Yevrosiyo relyefi” filmidan parcha namoish etiladi. Filmida Yevrosiyodagi qaysi tog` haqida ko`rsatilganini guruh a`zolari rangli qog`ozchalarga yozib beradilar.

O`qituvchi o`quvchilarning iqlim mavzusi bo`yicha bilimlarini bilish uchun juftliklarga topshiriq beradi. Ular “Bilaman. Bilishni istayman. Bilib oldim“ jadvalining 1-va 2-qismini yozib berishadi.

5-sinfda olgan bilimlaridan ob-havo, iqlim, shamol, izoterma atamaları yodga olinadi.

Ob-havo deb troposferaning biror joydagi ayni paytdagi yoki ma`lum bir vaqtdagi holatiga aytiladi.

Ob-havoning biror joyga xos bo`lgan ko`p yillik rejimi shu joyning **iqlimi** deyiladi.

Havoning gorizontaal harakati **shamol** deyiladi.

Iqlim xaritasida harorati bir xil bo`lgan nuqtalarni tutashtirib turuvchi chiziqlar **izotermalar** deyiladi.

Har bir guruhda ijodiy yondoshish uchun mavzu beriladi.

Guruhlarga karta asosida mavzular beriladi:

I-guruh. Geografik o`rinning iqlimga ta`siri.

II-guruh. Okeanlarning iqlimga ta`siri.

III-guruh. Relyefning iqlimga ta`siri.

IV-guruh. Yevrosiyoning iqlim kartasidan eng ko`p, eng kam yog`in yog`adigan hamda eng yuqori, eng past haroratli hududlarni aniqlang.

Yangi mavzu bo`yicha guruhlariga alohida topshiriqlar beriladi:

I-guruh. *Subtropik iqlim mintaqasi.*

II-guruh. *Tropik iqlim mintaqasi.*

III-guruh. *Subekvatorial iqlim mintaqasi.*

IV-guruh. *Ekvatorial iqlim mintaqasi.*

Guruhlar taqdimoti tinglanadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

O`quvchilar Yevrosiyo materigining yozuvsiz xaritasiga sovuq, mo`tdil va issiq iqlim mintaqalarini tushirishadi.

Dars boshida tarqatilgan jadvalning ”Bilib oldim” bo`lagi o`quvchilar tomonidan juftliklarda to`ldiriladi.

O`quvchilarni baholash:

Dars yakunida o'quvchilar to'plagan Yevrosiyo davlatlari bayroqlari sanaladi, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi. Guruhlarga darsdagi ishtirokiga qarab "Eng bilimdon guruh" "Eng faol guruh" "Eng hamjihat guruh" va "Eng iste'dodli guruh" unvonlari o'z egalariga topshiriladi.

Uyga vazifa:

Mavzuni o'qish, Atlasdagi "Yevrosiyoning iqlim kartasi"ni yozuvzis kartaga tushirish.

Mavzu	Okeaniya
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarda yangi atama va tushunchlarni shakllantirish; Okeaniya tabiiy-geografik o'rni xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish; o'quvchilarda geografik o'rin ko'nikmasini shakllantirishda davom etish; Mikroneziya, Polineziya, Meloneziyaga kiruvchi orollarni xaritadan topa olish ko'nikmalarini mashq qilish; Okeaniyani tadqiq etgan sayyohlar haqida ma'lumotlar berish.
O'quv jarayonining mazmuni	Vazifalar: O'quvchilarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, geografik atlas va xaritalar bilan ishlashga qiziqish o'yg'otish. O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.
O'quv jarayonini Amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: "Aqliy hujum", juftlikda ishlash ("B.B.B"), "Guruhlar bilan ishlash". Shakl: Savol-javob, jamoa va yakka tartibda ishlash, amaliy mashg'ulot. Vosita: Dunyo tabiiy xaritasi, 6-sinf o'quv atlas, yozuvsiz xarita, 6-sinf darsligi, "Kompyuter Osiyo" ITP tomonidan yaratilgan o'quv filmi, tarqatma savollar. Usul: Tayyor yozma materiallar, Akvarium, mavzuga oid xaritalar asosida. Nazorat: Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 ball tizim asosida baholash.
Kutilayotgan natijalar	O'qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o'yg'onadi. Amaliy mashg'ulot davomida barcha o'quvchilar baholanadi. O'z oldiga qo'ygan

	<p>maqsadlariga erishadi. O'quvchilar og'zaki va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajaradilar, boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga o'rgatiladi.</p> <p>O'quvchi:</p> <p>Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar. Guruhlar bilan ishlashni o'rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko'rsata olish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar</p>
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	<p>O'qituvchi:</p> <p>Yangi pedagogik texnologilarni o'zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O'z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqiyalar bilan bog'laydi va solishtiradi.</p> <p>O'quvchi:</p> <p>Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashi o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon eta oladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. Yangi mavzuga oid qo'shimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>

Mashg'ulotning borishi

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. (2 daqiqa)
2. Guruhlarga bo'linib ishlashni tashkillashtirish. (2 daqiqa)
3. Guruh a'zolariga juftlikda ishlash uchun topshiriq berish. (6 daqiqa)
4. Yangi mavzu bayoni (7 daqiqa)
5. Yozuvsiz xaritada Okeaniyaga kiruvchi yirik orollarni tushirish. (8 daqiqa)
6. Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa)
7. Mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)
8. O'quvchilarni baholash (3 daqiqa)
9. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Darsning borishi:

1. O'qituvchining kirish so'zi (1daqiqa).

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish, davomatni aniqlash;
- b) o'quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;

2. Guruhlarga bo'linish (2 daqiqa).

O'quvchilar tanlagan emblemalari orqali 5ta guruhga bo'linib, joylariga o'tirishadi (*emblemalar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi*).

I-guruh. “Tasmaniya”

II-guruh. “Yangi Zelandiya

III-guruh. “ Sumatra”

IV-guruh. “Yava”

V-guruh. “Yangi Kaledoniya”

Guruh a'zolari ichidan juftliklarga "**Bilaman, Bilishni istayman, Bilib oldim**" jadvali beriladi. O'quvchilar Okeaniya haqida bilgan va bilishni istaganlarni yozadilar. Juftliklar ishi guruhlarda ko'rib chiqiladi va guruh a'zolaridan bir o'quvchi u haqda bayon qiladi.

BILAMAN	BILISHNI ISTAYMAN	BILIB OLDIM

Yangi mavzu bayoni

Reja:

Okeaniyaning tavsifi.

Okeaniya tarkibiga kiruvchi orollar.

Okeaniya – bepoyon suvli maydonlarda sochilib yotgan orollar dunyosi, suv tagidan hisoblansa, harakatdagi eng baland vulqoni bor, zaxarli ilonlari, yirtqichlari va yirik sutemizuvchi hayvonlari yo`q, yagona uch ko`zli kaltakesak shu yerda yashaydi, endemik organizmlari ko`p, quruqlikka nisbatan suvli muhit eng ko`p maydonni egallaydi.

Tinch okeanining markaziy va g`arbiy qismlarida sochilib yotgan katta-kichik orollar **Okeaniya** deb ataladi.

Okeaniya tarkibi:

1. Melaneziya: Yangi Gvineya, Solomon, Yangi Gibrid, Yangi Kaledoniya.

2. Mikroneziya: Guam, Mariana, Marjon, Marshall, Gilbert, Ellis orollari.

Polineziya: Gavayi, Tonga, Kuk, Taiti, Tuamotu, Markiz orollari

“Meloneziya”- (yunoncha- melos- qora, nesos- orol ya'ni qora orollar).

“Mikroneziya”-(yunoncha- kichik orollar).

“Polineziya”-(yunoncha – ko`p orollar).

“Maorlar”- Yangi Zelandiyaning tub joy aholisi. (9 % tashkil etadi.)

“Papuaslari”- Yangi Gvineya Orolida yashovchi xalqlar.

“Yangi Gvineya” – Okeaniyaning eng yirik oroli. Maydoni 829300 km².

“Mariana”Mikroneziya orollari guruhiga kirib, dunyodagi eng chuqur botiqdir. (Chuqurligi- 11022 m.).

“Gavayi”-Polineziya guruhiga kiruvchi orollardan bo`lib, 1959- yildan Amerika Qo`shma shtati hisoblanadi.

Draslik va atlas bilan ishlash (8 daqiqa)

Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.

1-guruhga: Okeaniyaning asosiy xususiyatlarini ayting.

2 –guruhga: Okeaniyaning geografik o`rniga ta'rif bering.

3-guruhga: Okeaniyaning tekshirilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

4-guruhga: Okeaniyaning iqlim mintaqalarini sanab bering.

5-guruhga: Okeaniyada qanday o`simlik va hayvonot dunyosi tarqalgan?

5 daqiqadan so`ng guruh ishlari taqdimoti tinglanadi.

Guruh a'zolari boshqa belgilar orqali yangi guruhlarga ajratiladi.

Har bir guruhga turli xil orollar beriladi, ular yozuvsiz xaritaga shartli belgilar orqali belgilaydilar.

1-guruhga : Meloneziya guruhiga kiruvchi quyidagi orollarni yozuvsiz xaritaga tushiring. (Yangi Gvineya, Bismark arxepelagi, Solomon, Santa-Kruz, Yangi Gebrid).

2 –guruhga: Mikroneziya guruhiga kiruvchi quyidagi orollarni yozuvsiz xaritaga tushiring. (Mariana, Korolina, Marshall, Gilbert, Nauru).

3-guruhga: Polineziya guruhiga kiruvchi quyidagi orollarni yozuvsiz xaritaga tushiring. (Gavayi, Layn, Feniks, Tokelay, Marjon).

4-guruhga: Polineziya guruhiga kiruvchi quyidagi orollarni yozuvsiz xaritaga tushiring. (Samoa, Tonga, Kuk, Tubuai, Markiz, Pasxo)

5-guruhga: Okeaniyaga kiruvchi davlatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring. (Yangi Zelandiya, Samoa).

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlari tekshirib ko'riladi:

1-guruhga : Okeaniyadagi orollar maydoni qanchaga teng?

Javob: 1.3 mln. kv. km.

2 –guruhga: Okeaniyada qanchaga yaqin orollar bor?

Javob: 7000 ziyod orollar bor.

3-guruhga: Okeaniyaning deyarli 90 % qaysi orollar guruhiga to'g'ri keladi.

Javob: Yangi Gyineya va Yangi Zelandiyaga to'g'ri keladi.

4-guruhga: Yangi Gyineya orolida o'simliklarning qancha turi bor.

Javob : Bu yerda o'simliklarning 20 000 dan ortiq turi bor bo'lib, O'zbekiston o'simliklari turidan deyarli 5 marta ko'p demakdir.

5-guruhga: Okeaniyada qancha aholi yashaydi.

Javob: 12.7 mln. aholi yashaydi.

Yuqoridagi berilgan topshiriqlar bo'yicha rag'bat kartochkalari berib boriladi va dars yakunida ular sanaladi. Shunga ko'ra o'quvchilar baholanadilar.

Dars boshida berilgan jadvaldagi "**Bilib oldim**" bo'lagi to'ldiriladi.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlashda mavzu yuzasidan yangi so'z va atamalardan tuzilgan savollarni "**Akvarium**"ga solib qo'yadi.

Guruhlar tomonidan "**Akvarium**" dan yangi so'zlar, atamalar yozilgan baliqchalar olinadi.

Ular baliqchalardagi so'zlarga zudlik bilan javob berishlari lozim. Masalan: ("Meloneziya", "Mikroneziya", Polineziya", "Maorlar", "Yangi Gvineya", "Mariana", "Papuaslar", "Gavayi")

Uyga vazifa:

30- darsni o'qib kelish. Atlasdan 17-betdagi Okeaniyaga kiruvchi orollarni yozuvsiz xaritaga tushirishni tugallash. Okeaniya haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plash.

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mavzu: Yevrosiyo hududining yirik tabiiy – geografik o'lkalarga bo'linishi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarda Yevrosiyo materigi haqidagi bilimlar va tushunchalarni berishda davom etish, Yevrosiyo materigining tabiatiga oid bo'lgan bilimlarni yodga olish, yozuvsiz xaritalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda davom etish va u orqali Yevrosiyo hududining yirik tabiiy – geografik o'lkalarga bo'linishini o'rganish.

Tarbiyaviy:

O'quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini

shakllantirish. O`quvchilarni aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik kabi tarbiyaga yo`naltirish.

Rivojlantiruvchi:

O`quvchilarni dunyoqarashini oshirish va mustaqil fikrlashga o`rgatish. Ta'limiy uslubga asosan nazariy bilimlarni kengaytirish orqali olingan bilimlarni uzviy bog`lay olish va umumiy, xususiy yo`nalishlarini ajratib olishga tayyorlash.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Interfaol.

Dars o`tish metod va usullari:

Kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum". "Kim chaqqon" o'yini, "Klaster", amaliy ish, guruhlarda ishlash, diqqatni tortish, xarita bilan ishlash.

Darsning jihozi:

Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi. (Darslik)

Materik va okeanlarning tabiiy xaritasi. Atlas

Yarim sharlar tabiiy xaritasi..

6-sinf geografiya o`qitish metodikasi;

Geografiyaga oid albom va tarqatma materiallar;

Texnik vositalar:

Kompyuter, multimedia, slaydlar.

Dars rejasi:

O`qituvchining kirish so`zi. (3 daqiqa)

Guruhlarga bo`linish. (2 daqiqa)

1. "Kim ko`p biladi" o'yini. (5 daqiqa)

2. Tezkor savollar. (8 daqiqa)

3. Slaydlar yordamida yangi mavzu bayoni. (8 daqiqa)

4. E'tiborni jamlash (6 daqiqa)

5. Yangi mavzuni mustahkamlash. Yozuvsiz xarita bilan ishlash (7 daqiqa)

6. O`quvchilarni baholash. (4 daqiqa)

7. Uy vazifa berish. (2 daqiqa)

Darsning borishi: Tashkiliy qism:

Salomlashish, davomatni aniqlash.

Rag`bat uchun turli gulchalar beriladi. Dars oxirida kimning guldastasida gulchalar ko`p bo`lsa, shu guruh g`olib hisoblanadi.

1. Guruhlash: O`quvchilar 4 ta guruhga ajratiladi.

I – guruh. Arktika.

II – guruh. Mo``tadil.

III – guruh. Tropik.

IV – guruh. Ekvatorial.

“Kim ko`p biladi” o`yini:

Eng ko`p tabiat zonasi nomini yozish:

1. Arktika va antarktika cho`llari.
2. Tundra va o`rmon – tundra.
3. Tayga.
4. Aralash va keng bargli o`rmonlar.
5. O`rmon-dasht va dashtlar.
6. Chala-cho`llar va cho`llar.
7. Savannalar va siyrak o`rmonlar.
8. Qattiq bargli doimiy yashil o`rmonlar va butazorlar
9. Fasliy nam o`rmonlar
10. Sernam ekvatorial o`rmonlar
11. Balandlik mintaqalanishi o`lkalari.

Guruhlar javobi tinglangach, ular rag`batlantiriladi. Rag`bat uchun to`rt xil rangdagi qog`ozchalar beriladi.

O`qituvchi:

- Mana, aziz o`quvchilar, siz bilan dunyodagi tabiat zonalarini nomini yodga oldik. Siz oldingi darslarda Yevrosiyo materigining tabiatini o`rgangan edingiz. Bunda siz Yevrosiyo materigi hududining kattaligi, shunga ko`ra tabiatining ham xilma-xilligi bilan tanishdingiz.

- Hozir materik haqida olgan bilimlarimizni yodga olsak. Buning uchun har bir guruh tezkor savollarga bir nechta javoblar ichidan mosini topib, savol yoniga yopishtirishlari kerak.

- Savollar:

1. Yevrosiyoning eng issiq cho`li? (Rub – al - Xali)
2. Yevrosiyoning eng katta yarim oroli? (Arabiston)
3. Yevrosiyoning eng uzun daryosi? (Yanszi)
4. O`zbekistonning eng katta ko`li? (Orol)
5. Yevrosiyoda uchramaydigan irq nomi? (Negroid)
6. Yevrosiyo qaysi materiklarning parchalanishidan hosil bo`lgan? (Lavraziya)
7. Yevrosiyodagi yirik geosinklinal mintaqasi nomi? (Alp-Himolay)
8. Toshkentning qadimgi nomi? (Shosh)
9. Yirik tog` tuguni? (Tibet)
10. Tabiat zonalarini keltirib chiqaruvchi omil? (Iqlim)
11. Iqlim hosil qiluvchi omil? (Relyef)
12. Tayga qanday o`rmon? (Ignabargli)

13. Osiyo soʻzining maʼnosi? (Sharq)

Oʻqituvchi bu bilan aqliy hujum usuli orqali savollar berib, oʻquvchilar bilimini aniqlaydi va oʻquvchilar diqqatini jalb etadi.

Oʻqituvchi:

- Yer yuzidagi eng katta, eng baland supermaterik (8848m), Shimoliy yarimsharning “sovuq qutbi” mavjud, eng yirik yarimoroli, eng chuqur gʻori, eng chuqur va eng katta koʻli bor, eng uzun lianalar ham shu yerda (300 m) oʻsadi, Shimoliy yarimsharning barcha iqlim mintaqalari va tabiat zonalari shakllangan, eng katta deltasi bor, Yer sharidagi (sakkizminglik) 14 ta choʻqqining barchasi shu materikda joylashgan, doimiy muzloq yerlar maydoniga koʻra birinchi oʻrinda, berk havzalar maydoniga koʻra yetakchi, “Qor chizigʻi-balandlik qutbi” eng balanddan oʻtgan joy (6400 m, Markaziy Tibet) shu yerda.

Guruhlarga iqlim mintaqalari va tabiat zonalari nomi yozilgan jadval beriladi. Ular mos javoblarni bir-biri bilan tutashtirishlari kerak.

Iqlim mintaqalari	Tabiat zonalari
Ekvatorial	Arktika va antarktika choʻllari.
Subekvatorial	Tundra va oʻrmon – tundra.
Tropik	Tayga.
Subtropik	Aralash va keng bargli oʻrmonlar.
Moʻtadil	Oʻrmon-dasht va dashtlar.
Subarktika	Chala-choʻllar va choʻllar.
Subantarktida	Savannalar va siyrak oʻrmonlar.
Moʻʻtadil	Qattiq bargli doimiy yashil oʻrmonlar va butazorlar

Toʻgʻri javoblar:

Iqlim mintaqalari	Tabiat zonalari
Ekvatorial	Arktika va antarktika choʻllari.
Subekvatorial	Tundra va oʻrmon – tundra.
Tropik	Tayga.
Subtropik	Aralash va keng bargli oʻrmonlar.
Moʻtadil	Oʻrmon-dasht va dashtlar.
Subarktika va Subantarktika	Savannalar va siyrak oʻrmonlar.
Arktika va antarktika	Qattiq bargli doimiy yashil oʻrmonlar va

O`qituvchi oquvchilar javobini tekshirib, umumlashtiradi. To`g`ri javoblar rag`batlantiriladi.

Aqliy hujum orqali o`quvchilarga savol beriladi?

- Yevrosiyo materigining tabiati xilma-xil bo`lishiga sabab nima?

O`quvchilar javoblari:

- Okeanlarning yaqinligi;
- Relyefi;
- Quyosh radiatsiyasining tushishi;
- Geografik o`rni;
- O`simliklari va xk.

Demak, tabiatining xilma-xilligiga qarab biz bu materikni tabiiy-geografik rayonlashtiramiz.

Tabiiy – geografik rayonlashtirish deganda materikni bir-biridan farqlaydigan muayyan qismlarga ajratish jarayoni tushuniladi.

Yevrosiyo materigi quyidagi Tabiiy – geografik rayonlarga bo`linadi:

1. Shimoliy Yevropa.
2. O`rta Yevropa.
3. Janubiy Yevropa.
4. Sharqiy Yevropa.
5. G`arbiy Sibir.
6. Sharqiy Sibir.
7. Uzoq sharq.
8. Janubi-G`arbiy Osiyo.
9. Old Osiyo.
10. O`rta Osiyo.
11. Markaziy Osiyo.
12. Sharqiy Osiyo.
13. Janubiy Osiyo.
14. Janubi-Sharqiy Osiyo.

Qani, aytingchi, nechta o`lka Osiyoda, nechitasi Yevropada joylashgan?

O`quvchilar javobi tinglangach, javoblar baholanadi.

Mustahkamlash uchun guruhlariga yozuvsiz xaritalar tarqatiladi. Ular rangli qalamlar yordamida tabiiy-geografik o'lkalarni bo'yashlari kerak.

Dars so'ngida guruhlar olgan rag'bat kartochkalari hisoblanadi, mashg'ulotda faol ishtirok etgan o'quvchilar "Eng faol guruh", "Eng zukko guruh", "Eng bilimdon guruh", "Eng topqir guruh" nominantlari bo'ycha aniqlanib, o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa:

Mavzuni o'qish, yozuvsiz xaritagacha Yevrosiyoning tabiiy-geografik o'lkasi xaritasini chizish.

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

MAVZU: Rangli metallurgiya

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad:

O'quvchilarda tabiiy resurslar, metallurgiya majmuasi, qora metallurgiya xomashyosi haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirishda davom etish; metallurgiya majmuasi haqidagi bilimlarni eslatish; rangli metallarning xalq xo'jalikdagi ahamiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, yangi geografik atamalar bilan tanishtirish;

b) tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; tabiiy boyliklarni ko'z qorachig'iday asrash, bir-birlariga o'zaro hurmat, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda ma'suliyat sezish, ko'nikmalarini tarkib toptirish.

c) rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish.

Darsning jihozi:

Yarim sharlar tabiiy xaritasi, O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalari, 7-8-sinf o'quv atlaslari, "Foydali qazilmalar nomlarini bilasizmi?" nomli elektrondoskasi, rangli va nodir metallardan namunalari, rasmlar, "O'zbekiston oltini" kino filmi, 8-sinf geografiya darsligi.

Texnik vositalar:

Kompyuter, videoikkilik, slaydlar.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Noan'anaviy.

Dars metodlari: "Muammoli ta'lim", "Kichik guruhlarda ishlash", "Savol-javob".

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi
2. Guruhlarga bo'linish.
3. Biz bilgan bilimlar.
4. "O'zbekiston oltini" kino filmi tomosha qilish.
5. Yangi dars bayoni
6. Guruhlar taqdimoti.
7. "Foydali qazilma nomlarini bilasizmi?" elektrondoskasi orqali bilimlarni sinash
8. "Qazilma boyliklar sandiqchasi"

9. Mavzuni mustahkamlash.
10. O'quvchilarni baholash
11. Uyga vazifa

Darsning tashkil etilishi:

O'quvchilar tanlagan emblemalari orqali guruhlarga bo'linib, stollarga o'tirishadi.

I-guruh. Zarafshon.

II-guruh. Muruntov.

III-guruh. Olmaliq.

IV-guruh. Marjonbuloq.

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.

1. Intizom.
2. Faollik.
3. Vaqtga rioya qilish.
4. Asosli va mantiqli fikr bildirish.
5. Fikrni takrorlamaslik.
6. O'zaro hurmat.
7. O'ng qo'l qoidasi.
8. To'g'ri javob uchun rag'bat.

Darsda barcha shartlar bo'yicha har bir guruh a'zolari javoblari O'zbekiston davlati bayrog'i maketlari bilan rag'batlantirib boriladi.

Har bir guruhga uchtadan tezkor savollar beriladi:

I-guruh. Zarafshon.

1. Eng sifatli marmar koni qaysi tog'dan qazib olinadi? (Nurota tizmasidan)
2. Respublikamizda yoqilg'i sanoatining eng yosh tarmog'i qaysi? (Gaz sanoati)
3. Respublikamizda dehqonchilikda foydalanilgan yerlar asosan sug'oriladigan va yerlardan tashkil topgan. (Lalmi)

II-guruh. Muruntov

4. Aholining mamlakat ichkarisida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishiga nima deb ataladi? (Ichki migratsiya)
5. Yaxshi mexanizatsiyalashmagan, fan – texnika taraqqiyotidan kam foydalanilgan xo'jalikka qanday xo'jalik deb aytiladi? (Ekstensiv)
6. Respublikamizning qaysi viloyatidan qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi? (Toshkent viloyatidan)

III-guruh. Olmaliq.

7. O'zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi qayerda va nechanchi yilda boshlangan? (1932 – yil Sho'rusuvda)
8. Mamlakat aholisining migratsiya hisobiga ko'payishiga deyiladi (mexanik ko'payish)
9. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 90 % ini qaysi stansiyalar beradi? (IES)

IV-guruh. Marjonbuloq.

10. Mamlakatimizda yiliga qancha neft qazib olinadi? (7-8 mln tonna)
11. Sanoat tarmoqlarida respublikamizning mehnatda band aholisining necha foizi istiqomat qiladi? (12,7%)

12. Respublikamizning to'ng'ich metallurgiya korxonasi qaysi shaharda joylash?
(Bekobod shahrida)

Mavzu: Rangli metallurgiya

Videoikkilik orqali "O'zbekiston oltini" filmi namoyish etiladi.

Yangi mavzu bayoni

O'qituvchi:

**Dunyo go'yoki unga mahliyo,
O'lkamning boyligi tanhodir go'yo,
Zarafshon oltini, Olmaliq mis;
Uchquloch, Xondiza qo'rg'oshin, ruxi.
O'lkamning bag'rida boyliklar- bisyordir juda.
Tillo tuproqlari qolmas behuda.**

Dars boshlanishida

- Ha, haqiqatan ham O'zbekiston o'z mo'jizakor Yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxirlanadi. Uni qancha o'rgansak, shuncha ko'p Yer osti sirlari borligining guvohi bo'lamiz. Qulay iqlim sharoiti, ulkan mineral – xom ashyo zaxiralari, strategik materiallar va qishloq xo'jalik xom ashyosinig katta zaxiralari haqli suratda O'zbekistonni dunyoning eng boy mamlakatlari qatoriga olib chiqadi. Masalan: oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, MDH davlatlari ichida esa ikkinchi o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 11-o'rinda turadi.

Hozirga qadar respublikamizda 3 mingga yaqin turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral – xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Sundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning zaxiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi.

O'zbekiston rangli metallardan - mis, qo'rg'oshin, rux, bolfram va shu guruhga kiruvchi boshqa metallarning aniqlangan zahiralari ega.

Rangli metallar rudalarining zaxiralari asosan Olmaliq ruda maydonida joylashgan. Qalmoqqir koni noyob konlardan bo'lib, mis-molibden rudalarini qazib chiqarish bo'yicha chet eldagilardan ustun turadi. Bu konning rudasini Olmaliq kon- metallurgiya kombinati qayta ishlaydi. Kombinat O'zbekistondagi eng yirik korxonalardan biridir. Qo'rg'shin – rux asosan Jizzax viloyatining Uchquloch va Surxondaryo viloyatining Xondiza konlarida to'plangan.

Rangli metallar xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Yengil metallar (aluminiy, magniy, titan)
2. Og'ir metallar (mis, qo'rg'oshin, nikel, rux)
3. Qimmat baho metallar (oltin, kumush, platina)
4. Qiyin eruvchi metallar (volfram, molibden)
5. Nodir metallar (uran, germaniy)

Rangli matallurgiya: a) rangli metallarni qazib chiqarish ; b) boyitish d) eritish; e)qotishmalar ishlab chiqarishni o'zida birlashtiradi. Rangli matallurgiya mamlakatni elektirlahtirish, uning mudofa qudratini mustahkamlash, atom texnikasi, samolyotsozlik, raketasoqlikni rivojlantirish, mashinasozlik va kimyo sanoati uchun juda zarurdir.

Respublikamiz yalpi sanoat mahsuloti hajmida rangli metallurgiyaning salmog'i 15 % ni tashkil etadi.

Rangli matallurgiyaning asosiy mahsuloti – volfram va molibden ishlab chiqarish mamlakatimizda tez rivojlanmoqda. Chirchiq vodiysidagi qattiq qotishmalar zavodi muhim korxonalardan biri hisoblanadi. Bu korxonada mahsulotlaridan elektrotexnika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarida keng foydalaniladi. Respublikamiz chet davlatlarga tozalangan misni eksport qiladi.

Rangli metallar respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalarida ishlatiladi. Mis sof holda kabellar ishlab chiqarishda, qalayi bilan qo'shib (bronza shaklida), nikel bilan qo'shib (melxior shaklida), alyuminiy bilan qo'shib (duralyuminiy), rux bilan qo'shib (latun shaklida) elektrotexnika va

mashinasozlikda keng foydalaniladi. Qo'rg'oshin - akkumulyatorlar ishlab chiqarishda, elektr kabellar ishlab chiqarishda, rux bilan qo'shib temir buyumlar zanglamasligi uchun sirlashda, oq tunuka va podshipniklar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Shuningdek rangli metallar elektr tokini o'tkazuvi xususiyati bo'lganligi sababli elektr energiyasini iste'molchilarga o'tkazishda, aloqa tizimida juda ko'p foydalaniladi.

Rangli metallurgiya mahsulotlari respublika iqtisodiyoti rivoji uchun eng asosiy yo'nalish bo'lgan avtomobilsozlik, radio, elektronika kabi sanoat tarmoqlarida ishlatiladi. Yuqorida bayon etilgan boy merosimiz bo'lgan el boyligini ko'z qorachig'iday asrab avaylash Respublikamizda ta'lim olayotgan har bir o'quvchining vazifasidir.

Guruh a'zolari xarita va darslikdan foydalanib o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlar va o'zlari o'qib kelgan ma'lumotlarga tayanib, yangi mavzu savollariga javob berishlari kerak.

I-guruh. Zarafshon guruhi.

1. Mis, qo'rg'oshin, oltin, platina, uran, volfram qanday metallarga kiradi? (Rangli metallarga)
2. O'zbekiston MDH davlatlari ichida oltin qazib olish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi? (Ikkinchi)
3. Oltin, volfram, molibden, uran, mis, rux, alyuminiy qalaylardan qaysi biri yengil metall hisoblanadi? (alyuminiy)

II-guruh. Muruntov guruhi.

1. Qaysi kombinatlarda ko'p miqdorda xom – ashyo va yoqilg'i ishlatiladi? (Metallurgiya kombinatlarida)
2. O'zbekistondagi eng yirik mis eritadigan zavod qayerda joylashgan? (Olmaliq shahrida)
3. Qiyin eruvchi metallarga qaysilar kiradi? (volfram, molibden)

III-guruh. Olmaliq guruhi.

1. Rangli metallar xususiyatlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi? (Yengil metallar, og'ir metallar, qimmat baho metallar, qiyin eruvchi metallar, nodir metallar)
2. Yalpi sanoat mahsuloti hajmida rangli metallurgiyaning salmog'i qanchaga % ni tashkil etadi. (15 % ni)
3. O'zbekiston dunyo davlatlari ichida oltin qazib olish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi? (yettinchi)

IV-guruh. Marjonbuloq guruhi.

1. O'zbekiston dunyo davlatlari ichida mis qazib olish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi? (o'nbirinchi)
2. Mis, rux qanday maqsadlarda ishlatiladi? (elektrotexnika va mashinasozlikda, temir buyumlar zanglamaslik uchun rux bilan sirlanadi)
3. Og'ir metallarga qaysilar kiradi? (mis, qalayi, qo'rg'oshin, nikel, rux)

Har bir guruhga yangi mavzu bo'yicha alohida topshiriq beriladi.

Guruh a'zolari **“Qazilma boyliklar sandiqchasi”** dan qazilma boyliklar shartli belgilari chizilgan (ikkita)dan) tarqatmalarni olib, qazilma boyliklar tarqalgan joylarni belgilar orqasiga yozadilar.

Masalan: **Mis, oltin, kumush, aluminiy, qo'rg'oshin, rux, volfram, uran va boshqalar.**

Guruhlar bajargan ishlarini keyingi guruhga topshirishadi. Har bir guruh a'zolari o'zidan oldingi guruh ishining to'g'ri yoki noto'g'ril ekanligini tekshiradi.

O'qituvchi o'quvchilar ishini umumlashtirib, o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi.

Dars yakunida guruh a'zolari to'plagan bayroqchalar sanaladi va o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa:

Rangli metallurgiya mavzusini o‘qib, yozuvsiz xaritaga respublikamizdagi asosiy konlarni tushirib kelish. “Rangli metallar va unga munosabat” mavzusida o‘z fikrlarini geografiya daftariga bayon etib kelish.

Mavzu: Jahon mamlakatlarning davlat tuzumi va boshqaruvi

Darsning maqsadi va vazifalari:

Jahon siyosiy xaritasidagi mamlakatlarning geografiyasi, iqtisodiy rivojlangan davlatlar ularning guruhlariga ajratilishi haqidagi geografik bilimlarni shakllantirishda davom etish va o‘quvchilarni jahon mamlakatlarning davlat tizimi, idora qilish shakllari respublika, monarxiya, mutlaq, konstitutsion va federal monarxiya mavjud mamlakatlar ularni bir – biridan ajratib turuvchi belgilari, yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish; siyosiy xaritadan har bir guruh davlatlarini nomlarini aytib, ko‘rsata olishni; kartografik bilim manbalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; jahon mamlakatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar berish va tanishtirish.

Darsda ko‘rgazma materiallar:

Dunyoning siyosiy xaritasi, O‘zbekistonning tabiiy, siyosiy xaritasi, 9-sinf o‘quv atlas, siyosiy globus, yozuvsiz xarita, jadval, sxema, diafilm, qiziqarli kitoblar, test topshiriqlari va taqatma savollar.

Texnik vositalar:

Kompyuter, videoikkilik, slaydlar.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Noan’anaviy.

Dars metodlari: “Aqliy hujum”, “Suhbat”, “Munozara”

Darsning borishi:

- a) uyga berilgan vazifani baholash
- b) tashkiliy qism
- c) sardorlar saylash (guruh nomi)
- d) tarqatma savollar tarqatish

Yangi mavzu bayoni:

- a) doskaga mavzuni yozib, darsning maqsadini bayon etish:
- b) yangi mavzuni qisqacha bayon qilish
- c) yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini chuqurlashtirish maqsadida guruhlar bilan quyidagi tartibda olib boriladi.
- d) guruhlar tanishtiruv (bajarilishi shart bo‘lgan ishlar bayon etiladi)

1.Tarqatma savollar orqali o‘quvchilar bilimini baholash.

I-guruh.

1. Savol: Hindiston, Braziliya va Meksika davlatlari iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra qanday mamlakatlar guruhiga kiradi?

Javob: “Tayanch mamlakatlar”

2. Savol: Podsholik qiladi, lekin idora qilmaydi” iborasi qanday davlatlar uchun xos?

Javob: konstitutsiyaviy monarxiya davlatlari uchun xosdir.

II-guruh.

1.Savol: Norvegiya davlati boshqaruv shakliga ko‘ra qanday davlat?

Javob: Monarxiya tipidagi davlat

2.Savol: Svazilend qaysi qit’aga tegishli davlat?

Javob: Afrika qit'asiga tegishli bo'lgan davlat

Ikki guruhga

2. Berilgan mamlakatlar sonini qit'alar bo'yicha to'g'ri taqsimlab, yozib ko'rsating.

- 1) 57 ta ---
- 2) 50 ta ---
- 3) 51 ta ---
- 4) 45 ta ---
- 5) 26 ta ---
- 6) 1 ta ---

3. Yangi mavzu bayoni


Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi va uni idora qilish shakliga ko'ra ikki asosiy – respublika va monarxiya shakllari keng tarqalgan. Bizga ma'lumki respublika tuzumida qonun chiqaruvchi organ parlamentga, ijro etuvchi organ esa hukumatga qaraydi. Prezidentlik respublikasini parlamentlik respublikasidan farq qilish lozim. Prezidentlik respublikasida prezident hukumat boshlig'i lavozimidan tashqari juda katta vakolatlar bilan ta'minlangan bo'ladi (AQSh, Rossiya, Lotin Amerikasidagi qator davlatlar) Parlamentar respublikalarida prezident katta vakolatga ega bo'lmaydi, bosh vazir hukumat boshlig'i hisoblanadi (GFR, Italiya,. Avstriya,Hindiston).

Hozirda jahonda 30 ta monarxiya shaklidagi davlatlar mavjud. (1-jadval) Bulardan Osiyoda -13 ta, Yevropada - 12 ta, Afrikada – 3 ta, Okeaniyada 1 –ta, Amerikada – 1ta

Monarxiyaning ko'pchiligi konstitutsiyalik monarxiyadir, ularda qonun chiqaruvchi organ parlamentga, ijro etuvchi organ esa hukumatga qaraydi

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

Geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.



Geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.

Respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim sohasida ishlayotgan barcha ziyolilar oldiga muhim talablar qo'ydi. Qonun zamiridagi bosh maqsad – bola shaxsini sog'lom va etuk kamol toptirish, ular ongida bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish hamda yuksaltirish. Shuningdek, unda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilgan. Bu talablarni bajarish uchun esa muallimlarning dars jarayonida yangi, noan'anaviy usullarni, testning turli xil usullarini qulay bilishligi taqozo etiladi.

Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar, turli xil faniy birlashuv va viktorinalar o'tkazish ham o'quvchilar dunyoqarashining, mustaqil fikrlash jarayonining o'sishiga yordam beradi.

Maktabdagi o'quv ishlari dastur asosida va cheklangan, belgilangan vaqt doirasida olib boriladi. Shuning uchun o'quvchilarning barcha qiziqish va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas.

Sinfdan tashqari ishlar maktabdagi o'quv tarbiyaviy ishlarning uzviy davomi bo'lib, o'quvchilarning mustaqilligini, faolligini siyosiy-g'oyaviy saviyasini yanada oshirishni, qobiliyatlarining rivojlantirishni bilim qamrovining kengaytirish va chuqurlashtirishni hamda ayrim hayotiy ko'nikma va malakalarni egallashni maqsad qilib qo'yadi. Shuning bilan birga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini oqilona va qiziqarli tashkil etish ham sinfdan tashqari ishlarning zimmasiga tushadi.

Geografiya fani keng ko'lami va xilma-xil masalalarni qamrab olsada, barcha masalalarni o'quv jarayonida yoritish imkoniyati yo'q, ammo geografiya qamrab olgan masalalarning ko'pchiligi o'quvchilarni qiziqtirib keladi. Geografiya fani sinfdan tashqari ishlar uchun katta imkoniyatlarga ega.

Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ixtiyoriyligida. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va ularning mas'uliyatini oshirishdan iboratdir. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan alohida muomala qila bilishi hamda ularning psixologik xususiyatlarini o'rganishi zarur. Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi o'quvchilar tomonidan dastur materiallarini chuqurroq o'zlashtirish, tabiatdagi turli hodisalarni, dunyoda ro'y beradigan voqealarni ko'proq bilish, muhim o'rin egallaydi.

Bu tabiatda, geografiya xonasida, maktab geografiya maydonchasida, turli tajriba va kuzatish ishlarini olib borishda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, ekskursiyaga chiqish va qo'shimcha adabiyotlar o'qish orqali o'quvchilarning bilim darajalarini kengaytirish, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Geografiyani o'qitishda o'quv tarbiya ishlarini yanada takomillashtiruvchi omillardan biri sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va uni o'tkazishdan iborat. bunday ishlar umummaktab o'quv-tarbiya ishlarning maqsad va vazifalari asosida olib boriladi. Bularning hammasi o'quvchilar ongining har tomonlama rivojlanib borishiga, o'quv faniga qiziqishiga ijodiy qobiliyatlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Geografidan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, usullari xilma-xildir.

Geografiyani o`qitishda sinfda o`tkaziladigan darsni sinfdan tashqari mashg`ulotlar bilan bog`lab olib borish tufayli o`quvchilar amaliy ishlarni mustaqil bajarishga, tajriba va kuzatish ishlarni olib borishni hamda xulosalar chiqarishni o`rganadilar. Natijada ularning fikrlash qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Bunday ishlarni amalga oshirish geografiya o`qituvchisidan pedagogik mahorat talab qiladi.

Sinfdan tashqari ishlar 3 guruhga bo`linadi:

- 1) o`quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlar;
- 2) o`quvchilar guruhlari bilan olib boriladigan ishlar;
- 3) o`quvchilar bilan ommaviy tarzda olib boriladigan ishlar.

O`quvchilar darsdan va sinfdan tashqari bajaradigan har qanday mustaqil ishni o`qituvchi rahbarligida olib boradilar. O`qituvchi o`quvchilarga mustaqil ishni bajarishda, taqqoslashda, kuzatishlaridan xulosalar chiqarishda aniq yo`llanmalar beradi. O`qituvchi o`quvchiga mustaqil ishni topshirgach, uni qanday bajarilishidan xabardor bo`lib turishi maqsadga muvofiqdir. Ish noto`g`ri bajarilayotgan bo`lsa, ularga qanday bajarish haqida tushuntirib berishi, rag`batlantirishi, bajarayotgan ishlarga mas`uliyat bilan munosabatda bo`lishini aytish lozim.

Sinfdan tashqari ishlarning turlari.

Sinfdan tashqari ishlar turli tadbirlar tarzida tashkil etiladi. Ulardan muhimlari – geografik adabiyotlarni o`qish, geografik mazmundagi axborot (ma`ruza tarzida) berish, navbatchi xarita tashkil etish, devoriy gazeta chiqarish, kecha va konferentsiyalar o`tkazish, geografik o`yinlar tashkil etish, xaritada tasvirli sayohat qilish, geografiya fan olimpiadalarini o`tkazish, ko`rgazmalar tashkil etish, ekskurtsiya va sayohatlar uyushtirish.

Sinfdan tashqari vaqtda olib boriladigan tadbirlar mazmuniga, mahalliy sharoitga, o`quvchilarning yosh xususiyatiga, qiziqishlariga qarab olib boriladi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy qismini tashkil qiluvchi to`garak ishlariga V asosan V-IX sinf o`quvchilari jalb etiladi.

Geografiya bo`yicha tashkil qilingan «Yosh geograf» to`garagining mazmuni shu geografiya kurslari bo`yicha o`quv-tarbiyaviy ishiga bevosita bog`liq bo`lib, u o`quvchilarni aqliy va jismoniy rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga o`rgatishga qaratilgan.

Geografiya bo`yicha tashkil qilinadigan to`garakning mazmuni quyidagilarni o`z ichiga olishi lozim:

1. **Geografiya xonasida reja asosida bajariladigan ishlar yuzasidan to`garak a`zolari bilan suhbat o`tkazish.**
2. **To`garak a`zolarining hisobotlarini eshitib turish.**
3. **turli xil ko`rgazmali qurollar tayyorlash.**
4. **Maktab geografiya maydonchasida amaliy ishlarni bajarish.**
5. **Kuzatishlar olib borish.**
6. **Devoriy gazetalar chiqarish.**
7. **Tabiatga ekskurtsiyalar uyushtirish.**
8. **Geografiya xonasini jihozlashga qatnashish.**

Geografiya o`qituvchisi «Yosh geograf» to`garagi tashkil qilishda avval to`garak tuzib chiqib, metod birlashmada muhokama qilinadi.

To'garak ishi odatda sinfdan tashqari bironta ayrim tadbirni amalga oshirish bilan ham vujudga keladi. Masalan qiziqarli o'tkazilgan har bir ekskurtsiya, ma'ruza, geografiyaga taalluqli adabiyotlardan parcha o'qish va boshqa ta tadbirlar geografiya to'garagining boshlanishiga asos bo'lishi mumkin.

To'garakning rahbari, kotibi bo'ladi. To'garak a'zolarining har biri o'z qobiliyatiga yarasha o'zi qiziqqan ish bilan shug'ullanishi kerak.

To'garak ishida o'qituvchi asosiy maslahatchidir. U darsni shunday tashkil qilishi kerakki, geografiya to'garagiga qiziqish dars jarayonidayoq boshlanib, keyinchalik o'quvchi o'z xohishi bilan bu to'garakka qatnashadigan bo'lsin.

To'garak a'zolarining soni 15-20 tacha bo'ladi. To'garak mashg'ulotlarini haftasiga bir marta o'tkazish yaxshi natija beradi.

O'quvchilar darsda nazariy bilim olsalar, kuzatish orqali esa o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar.

O'quvchilarda kuzatishlar natijasida hisobot yozish, ma'ruza qilish, nutq madaniyatini o'stirish, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash malakalari hosil bo'ladi.

OROL FOJIASINING ATROF MUXITGA SALBIY TA'SIRI

Orol fojiasi to'g'risida tushuncha. Orol dengizi qit'a ichkarisidagi, suvi oqib chiqib ketmaydigan, tuzli xamda dengiz va ko'l xislatlariga ega bo'lgan suv xavzasidir. Dengizga Amudaryo va Sirdaryo suv etkazib beradi. Dengizning mavjudlik xolati bir tomondan, suvning tabiiy aylanishiga bog'liq. Hududiy xususiyatlari iqlimiy, geotektonik va antropogen omillarning xarakterini belgilab beradi.

Orol tubidan ko'tarilgan tuz va qum zarrachalari Ustyurt yassi tog'laridan engilgina oshib, janub va g'arbga tarqaladi. Kaspiyda suvning yuzaki bug'lanishi tik nayzasi bilan uchrashadi, natijada iqlimshunos va meteorologlar ta'biri bilan aytganda, chang va tuzli bulutlar hosil bo'ladi. Ular juda balandlikka ko'tarilib, eni 40 km, uzunligi 30 km bo'lgan xududlarga etib boradi.

Dengiz sathidan ko'tariluvchi bug' ustuni Amudaryo quyi oqimi hududiga shimol shamollari kirib keladigan yo'lda bamisoli qalqon bo'lib turgan, dengizning mayinlashtiruvchi nafasi iqlim quruqligini kamaytirar, saraton issig'ini va qaxraton sovug'ini mo''tadillashtirar edi.

Orol va Orol bo'yi bo'xronining eng asosiy sababi, ishlab chiqarish tuzilmalari bilan, O'rta Osiyo ekologik sistemasi o'rtasida vujudga kelgan chuqur ziddiyatdir. Bu tabiatning ob'ektiv qonunlarini mensimay suv va boshqa tabiiy boyliklardan xo'jasizlarcha foydalanish oqibatida ruy berdi.

Birinchi navbatda ko'p suv talab qiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish, paxta va sholi yakka xokimligi strategiyasining tiklanishi daryolar suvini sug'orishlardan ortmaydigan qilib qo'ydi.

Nazoratsizlik va suvdan foydalanishning "bepulligi" hamda almashlab ekishlarning yo'qligi suvdan samarasiz foydalanishga olib keldi. Paxta va sholi etishtirish juda ko'p suv sarflashdan tashqari, xisobsiz miqdorda madaniy o'g'it va o'simliklarni ximoyalash kimyoviy vositalaridan keng miqyosda foydalanish atrof-muxitni yo'l quyilishi mumkin bo'lgan darajasidan o'nlab marta yuqori ifloslanishga olib keldi.

Umuman ishlab chikaruvchi kuchlarni rivojlantirish avvalo tayyor maxsulot emas, balki qishlok xujalik xom-ashyosini ko'paytirish manfaatlarini ko'zlagan. Bu O'rta Osiyo va Kozog'iston xududida "axoli-iqtisodiyot-tabiati" tizimi muvozanati buzilganligining eng yorqin ifodasidir. Mazkur tizimning etakchi xalqasi bo'lgan axoli yiliga taxminan 3 % ga ko'paymokka, ya'ni iqtisodiyotning usishi axoli usishiga nisbatan sust, tabiat esa tanazzulga yuz tutmoqda.

Orol inqirozining asosiy sabab va oqibatlari quyidagilardan iboratdir.

1. Ko'p suv talab qiladigan ishlab chiqarish kuchlarini ekstensiv rivojlantirish, joylashtirish va ularning suvni xaddan tashqari ko'p iste'mol qilishi, tayyor maxsulot ishlab chiqarish talab darajasidan ortda qolayotgan bir vaqtda qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirish natijasidir. Qishloq xujalik ekinlarini ekologik jihatdan asoslanmagan tuzilmalari joriy qilindi. Eng avvalo suvni ko'p talab qiladigan ekinlar, birinchi navbatda paxta va sholi maydonlari g'oyat kengaytirildi. Bu katta miqdorlarda mineral o'g'itlarni talab kiladi va gerbitsidlardan keng foydalanishni taqozo etadi.. Bir qator xollarda erlarni kengaytirish va sug'orish ishlari sifatiga e'tibor bermay hosildorligi past, melioratsiyalash qiyin bo'lgan zaminlar o'zlashtirildi. Bu tuprog'i qayta sho'rlanishga va yuqori darajada minerallasgan zovur-oqava suvlari oqimlari shakllanishiga olib keldi.. Aksariyat xollarda sug'orish tizimlarini loyixalashtirish, qyish va ekspulatsiya qilish ishlari sifatsiz bajarildi. Natijada xar yili o'rtacha 100 ming ga erning meliorativ xolati yomonlashdi.. Sug'orish me'yorlari oqilona, ilmiy tashkil qilinmadi, balki qanday bo'lsa-da eng ko'p hosildorlikka erishishni o'ylab ilmiy nuqtai nazardan etarli asoslanmagan ekstensiv uslubga tayanildi. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning ekologiya tizimiga ta'sirini, uning yaxshilashning muqobil yo'llarini, istiqbollarni

aniqlash, shu jumladan, katta miqyoslarda amalga oshiriladigan ishlarning ekologik oqibatlarini ilmiy taxlili yo'q edi. Aholi xayot darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan davlat xo'jalik siyosiy faoliyatining ijtimoiy-ekologik jihatlari kuchsiz edi. Umuman Orol dengizi xavzasi tabiiy muxitning xozirgi axvoli va rivojlanish jarayoni tahlili ekologik vaziyatning yanada keskinlashib borgan sari murakkablashayotganini ko'rsatmoqda.

Mintaqaning axvoli va rivojlanishida tobora yangi-yangi muammolar paydo bulmokda. Unlab yillardan beri ko'ndalang turgan asosiy muammoni xal etish uchun turli loyihalar taklif kilindi, ammo, hozircha ularning birontasi xam xayotga to'liq joriy etilmadi. Zero, bu loyixalarning amalga oshirilishidan ma'muriy-buyrukbozlikka asoslangan tizim manfaatdor emas edi. SHuning uchun xam xayot darajasini, tabiatni muxofaza kilishni yaxshilashga doir dasturlar, loyixalar direktiv xarakterga ega bo'lib, qypyq chaqiriqlardan iborat edi.

Orol bo'yi xududining ma'muriy bo'linishi. Orol dengizi va unga yondosh xudud Markaziy Osiyo mintaqaviy-ijtimoiy ekosistemasining shimolida joylashgan. Umumiy maydoni 473 ming km. axolisi 35 milliondan ortiq. Orol mintaqasi ma'muriy jihatdan quyidagi hududiy birliklarniqamrab oladi:

I. Qozogiston Respublikasida:

1. Aktyube viloyatidagi-Banganin, Irgiz, Cholqar rayonlari:
2. Qizil O'pda viloyatidagi-Orol, Jalagash, Gazal, Qarmoqchi, Sirdaryo, Terenuzek, Chilik, Yangiqo'rg'on.
3. CHimkent viloyatidagi - Bogen, Qizilqum, Suzoq, Turkiston, Chordara rayonlari (jami-13 ta) kiradi.

II. O'zbekiston Respublikasida:

1. Qoraqalpogistondagi - Muynoq, Amudaryo, Kegeyli, Qo'ng'iroq, Xujayli, Qorauzak, SHumanay, Taxtako'pir, Nukus, Bozotov, Turtko'l, Chimboy, Eliliqal'a, Beruniy.

2. Xorazm viloyati - Bog'ot, Gurlan, Qushko'pir, Urgench, Xozarasp, Xiva, Xonqa, SHovot, Yngiariq, Yngibozor.

3. Buxoro viloyatidagi - Uchquduq, Tomdi, Peshku, Konimex(jami-29 ta).

III. Turkmaniston Respublikasida:

1. Tashhovuz viloyatidagi-Oktyabrъ, Ko'xna-Urgench, Kalinin, Tel'man, Пъyali, Tashxouz, Taxiatosh.

2. Чorju viloyatidagi-Darganatinak rayonlari (jami-19 ta).

Xammasi- 51 ta rayon bo'lib, 3 ta mustaqil davlatlarning xududlarida joylashgan.

2 Orol dengizi sobiq SSSR Osiyo kismining janubiy-g'arbidagi Turon pastligida, Qozog'iston va O'zbekiston respublikalarining tropik cho'llari tashqarisida joylashgan. Dengizga Amudaryo va Sirdaryo suv etkazib beradi. Dengiz suv xolati, bir tomondan, yuqorida zikr etilgan daryolarning suv keltirishi, ikkinchi tomondan, suv yuzasidagi bug'lanish bilan belgilanadi. Bu xolatlar iqlimiy geotektonik va antropogen omillar, dengizning morfologik jixatlari bilan bog'liq.

Ko'xna gidrografik tarmoqning dalolat berishicha, Turon allyuvial tekisligi, Orol dengizi unga kelib kushuluvchi daryolar bilan birgalikda mustakil xavza bo'lmasdan, Kaspiy dengizi xavzasi arealiga kiradi. Bir vaktlar Orolga suv beruvchi Amudaryo va Sirdaryo uning irmoqlari sifatida Kaspiy dengiziga quyilgan, keyinchalik Nurota va Tomdi tog'lari qad rostlagach Sirdaryoning yo'li to'silib, u Farg'ona vodiysidan chiqaverishda shimolga burilib, Qoratorov tizmalari janubi-g'arbidan Ustyurtgacha o'ziga yo'l ochdi. O'rta erda suvga to'la Sariqamish chuqurligi orqali g'arbiy Uzboyga qushilib, Kaspiy dengizigacha borgan.

60-yillargacha Orol dengizi nisbatan bapqapop edi. Amudaryo va Sirdaryoning unga tushuvchi suvlari (yiliga 56 kub kilometr) va yog'in-sochin suvlari (yiliga 9 kub kilometr) dengiz yuzasida buglanadigan suv xajmini (yiliga 65 kub kilometr) qopladi.

Bu mintaqqa qadimdan ko'chmanchi chorvachilik va dexkonchilik bilan shug'ullanib kelayotgan regionlardan biri edi. Sobiq ittifoq davrida turli xil qishlok xujalik maxsulot ishlab chiqaradigan intensiv dexqonchilikka aylantirilgan edi.

Sug'orish sistemasining kengayib ketishi, sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi natijasida bu region yirik agrosanoat kompleksiga aylanib kolgan edi.

1950 yil bu mintaqada sug'orilib yig'iladigan er 2,9 mln. ga bo'lgan bo'lsa, 1990 yillarga kelib 7 mln. ga dan, qishlok xo'jalik maxsulotlarini ishlab chikarish xajmi esa 4 barovardan oshib ketgan edi va sobiq SSSR davrida davlatning 90 % paxtasini, 40 % ga yaqin sholisini mevaning 1/3 ni, 1/4 sabzavot maxsulotini etkazib bergan.

Orol mintaqasidagi bu vaqtinchalik yutuqlar (jon boshiga olingan foyda) 1960 yilga nisbatan 2 barobarga ortib ketgan edi. O'sha davridayok o'z echimini

kutayotgan sug'orish sistemasini yo'lga ko'yish, tuprok hosildorligini saklab kolish, kolxoz-sovxozlarning qurilishidagi komplekslilik kabi kechiktirib balmaydigan ishlar bajarilmadi. Bu salbiy omillar ekstensiv ravishda rivojlanish yo'lida tushib kolgan kishlok xujalik ishlab chikarishning surunkali opkaga ketishiga olib kelgan edi.

Suv bosgan maydonda Orol suv xajmi 1064 km kub, maydoni esa 67 ming kub kv, chukurligi 70 metrgacha bo'lib, suvining sho'rliigi 9,6 -10,3 %. Orol dengizida 1100 ta orol bo'lgan, iqlimi kontinental Orolga kuyadigan daryolarning suv sarfi xaddan tashkari kamayib ketishi natijasida 1970-1980 yillari Orolga bir tomchi suv xam etmay qolgan edi. Natijada 1990 yilga kelib suv satxi 39 metrga, suv xajmi 400 km kubga suv maydoni 40 ming km² ga kamayib ketdi, natijada dengiz maydoni 1/3 ga suv 60 % kamayadi. Orol mintaqasidagi 100 minglab gektar erlar sho'rlana boshladi, ekinlarda kasalliklar ko'paydi, tuprok hosildorligi kamaydi, kishlok xujalik maxsulotlari ishlab chikarish keskin pasayib ketdi. Bu xol Orol mintaqasidagi yukorida bayon kilingan uchta mustaqil davlatning 51 ta rayonida og'ir sotsial-iqtisodiyot, ekologik va sanitariya epidemiologiya sharoitining avj olib ketishiga olib keldi.

1985-1990 yillarda Orol suvi qaytishi natijasida 26 ming km suv osti qumligining yuzi ochilib koldi, uning 2/3 qismi sho'rxok, tuzli kum adirlaridir. Davlat Gidrometeorologiya Qo'mitasining bergan ma'lumotlariga ko'ra bu maydondan yiliga 75 mln. tonnagacha qum, chang ko'tarilgan. Orol suvining qurigan maydonidan chiqqan va shamol kuchi bilan tarqalayotgan aerazol er atmosferasining tarkibiga aralashib ketib joylarda to'zonli, tuzli bulutlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqdaki, iqlimshunos va meteorolog olimlarning ta'biri bilan aytganda ular atmosferada o'ta baland ko'tariladi va uzoqlarga eltib tashlanadi. Bu xil tuzli to'zonlarning muzliklarga kelib qo'shilishi uning tez erishiga, yomgir suvlarini minerallashuviga olib kelmokda, natijada Orol bo'yi mintaqasidagi yomgir suvlari tarkibida minerallashgan kismi 2 barobarga, Orol bo'yi tomonlarda esa 7 barobar oshgan. Eg'ingarchilikning minerallanish darajasining ortib borishi Litva va Belorussiyada sezilmoqda. Orol dengizi chekingan joylardan ko'tarilgan tuzli to'zonlar atmosferaning 5 % ni ifloslab bo'ldi degan ma'lumotlar bor.

Natijada Orol dengizi atrofida, ayniksa Korakalpog'iston Respublikasida, Qizil O'pda va Toshhovuz viloyatlarida odamlar salomatligi uchun xavfli ogir ijtimoiy-iktisodiy, ekologik va sanitariya epidemiologik vaziyat vujudga keldi.

Kasalga chalinish darajasi ayniqsa ayollar va bolalarda ko'tarildi, ulim xam ko'paydi. Orol bo'yidagi aholi salomatligining yomonlashuviga, ekologiya omillaridan tashkari, tibbiyot muassasalari ishidagi kamchiliklar, bir katop axoli istiqomat qiladigan joylarda markazlashgan vodoprovod tizimining yo'qligi sabab bo'lmoqda. Masalan, Qoraqalpog'istonda shaxar joylarning atigi 11 % da vodoprovod bor, qishloqda esa butunlay yo'q.

Orol va Orolbuyi muammolarini xal etish yo'llari. Orol dengizi havzasi tabiiy muxitining xozirgi axvoli va rivojlanishi jarayonini taxlil etish ekologik vaziyatni yanada keskinlashishini kursatmokda.

Orol muammosi borgan sari murakkablashayotir. Mintakaning axvoli va rivojlanishida tobora yangi-yangi muammolar paydo bulmokda. Ularning barchasi tez va juda ildam xal etishni talab etadi.

O'nlab yillardan beri kundalang turgan asosiy muammoni xal etish uchun kupdan-kup loyixalar taklif kilindi. Ammo xozircha ularning birontasi xam xayotga joriy etilmadi. Bu loyixalarning xammasini ikki guruxga birlashtirish mumkin: (9 kub. km.) dengiz yuzasidan buglanadigan suv xajmini (yiliga 65 kyb. km.) koplardi.

Хулоса

Sobiq sovet xokimiyati yillaridailgari kuchmanchi chorvachilik va sugoriladigan dexqonchilik mavjud bulganOrolbuyi, jadal sugorishga asoslangan, kup tarmoqli kishlok xujalik ishlab chikarish ulkasiga aylandi. Ayniqsa, mustaqillikkacha bulgan chorak asr mobaynida sugorish va sanoatni rivojlantirish uchun qaytarilmas suv iste'molining usishi, shuningdek qator yilla dagi qurg'oqchilik Orol dengiziga daryo suvlari quyilishining asta-sekin kamayishiga, xatto butunlay tuxtab qolishiga olib keldi.

Paxta va boshqa ekin maydonlarini sug'orish uchun suvdan betartib foydalanish, keyingi yillarda, Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlari kelib quyilishining keskin qisqarishiga olib keldi. Dengiz satxi 16 metr dan ziyod pasaydi. Suv maydoni 60-yillar boshlaridagiga nisbatan uch dan birga kichraydi. Suv xajmi 60 % kamaydi.

Amudaryo va Sirdaryo quyi okimlarida daryolar suvining sifati xalokatli yomonlashdi. Iste'molga deyarli yaramay koldi. Ana shu daryolar delxtalaridagi eyrlar jadallik bilan kurgoklashib bormokda. Orol dengizi va unga yakin joylashgan erlarning ekologik sistemasi, xayvonot va usimliklar dunyosi chukur inkirozga uchramokda.

Orol dengizining qurib qolgan tubi 4 million gektaga etdi. Shu maydonning uchdan ikki qismi shurxok, tuzbosgan qum lokerlardan iborat.

Orol dengizini noqulay vaziyat va ekologik tanglikdan chikarish bo'yicha birqancha loyihalar taklif qilingan. Ular jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Orol dengizi xavzasi ichki resurslari suvlarini burib yuborishni taklif etayotgan (intraregional) loyixalar.

2. Suvni chetdan, ya'ni xavzadan tashqaridan keltirishni taklif etayotgan, (ekstraregional) loyixalar va boshqalar.

Orol dengizi satxini maxalliy resurslar xisobiga barqarorlashtirishni kuzda tutuvchi loyixalar quyidagi manbaalar suvni dengizga orzishni taklif koladi:

1. Kollektor-drenaj tizimlari suvlarini.

2. Sariqamish, Dengizkul, Sultontog, Maxankul, Arnasoy, Aydar va Sudochъe tashlama kullari suvlarini.

3. Gidromelioratsiya tizimi samaradorligini oshirish, sug'orish texnologiyasini yaxshilash, suv resurslarini xududii qayta taqsimlash va boshqa tadbirlar xisobiga istiqbolda tejab qolinadigan suvlar.

